



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 59 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METHODS USED IN BUSINESS DECISION-MAKING	10
Ochildiev Bekhruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O'ZBEKISTON MIQYOSIDA VA UNING XUFYONA JIHATI	15
Yuldasheva Nargiza Rashidovna, Koshanov Abdimurat Azat uli	
BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR	20
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Normamatova Sitora Nozim qizi, Umida Yuldasheva Anasaliyevna	
ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ МОДЕЛИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИЕ ПО БУХГАЛТЕРСКОМУ УЧЁТУ: ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	25
Муратова Наргиза Тахировна	
MIGRATSIYA JARAYONLARI VA IQTISODIY TENGSIZLIK O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR XUSUSIYATLARI	30
E.T. Samadova, M.Sh.Raximova	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENTNING YANGI YONDASHUVLARI	36
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Meliyeva Nargiza Eshboyevna	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	43
Nosirov Sabohiddin, Abdullayeva Mohiniso, Hafizullayev Javlon, Kasimova Zilola G'ulomiddinovna	
MEHNAT MIGRATSIYASI VA PUL O'TKAZMALARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI	48
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLAR VA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARINING O'RNI	53
Mirkomilov Nozimjon Oybek o'g'li, Tillayev Xurshid Sulaymon o'g'li	



TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLAR VA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARINING O'RNI



Mirkomilov Nozimjon Oybek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Iqtisodiyot" fakulteti talabasi

E-mail: jj1659589@gmail.com

Tillayev Xurshid Sulaymon o'g'li

Bank ishi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqola tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlarining tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni hamda ularning moliyaviy xizmatlar ko'rsatishdagi roli, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan nufuzli banklardan biri — AT "Aloqabank" misolidagi tahliliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ushbu sohadagi mavjud muammolar tahlil qilinib, samaradorlikni oshirish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, mikromoliya tashkilotlari, tadbirkorlik faoliyati, kichik biznes, iqtisodiy o'sish, marketing faoliyati, moliyaviy resurslar, moliya infratuzilmasi, imtiyozli kreditlar, istiqbolli loyihalar.

Abstract: This article contains analytical data on the role of commercial banks and microfinance organizations in the development of entrepreneurship, their role in providing financial services, the decisions of the President of the Republic of Uzbekistan on the development of entrepreneurship, as well as the example of JSC "Aloqabank", one of the most prestigious banks operating in our country. At the same time, existing problems in this field were analyzed and proposals were made to improve efficiency.

Key words: commercial banks, microfinance organizations, entrepreneurship, small business, economic growth, marketing activities, financial resources, financial infrastructure, preferential loans, promising projects.

Аннотация: В данной статье представлены аналитические данные о роли коммерческих банков и микрофинансовых организаций в развитии предпринимательства, их роли в оказании финансовых услуг, решениях Президента Республики Узбекистан по развитию предпринимательства, а также рассмотрен пример АКБ «Алокабанк» – одного из самых авторитетных банков, действующих в нашей стране. Проанализированы существующие проблемы в этой сфере и даны предложения по повышению эффективности.

Ключевые слова: коммерческие банки, микрофинансовые организации, предпринимательство, малый бизнес, экономический рост, маркетинговая деятельность, финансовые ресурсы, финансовая инфраструктура, льготное кредитование, перспективные проекты.



KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikka erishishda tadbirkorlik faoliyatining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash hamda innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq etishda muhim omil sanaladi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash esa bevosita moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga, xususan, tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlari faoliyatiga chambarchas bog'liqdir.

Tijorat banklari orqali ajratiladigan kredit mablag'lari, imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlari va investitsion loyihalarni moliyalashtirish uslublari tadbirkorlikni kengaytirish uchun asosiy moliyaviy tayanch hisoblanadi. Shu bilan birga, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga, ayniqsa qishloq joylarda yashovchi kichik tadbirkorlarga xizmat ko'rsatishda mikromoliya tashkilotlarining o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish, xususiy sektor faoliyatini rag'batlantirish va moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmonida [1] hamda 2021-yil 21-apreldagi "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087-son² qarorida [2] xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy institutlarning faol ishtirokini kengaytirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Tadbirkorlik subyektlarini zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda tijorat banklari hamda mikromoliya tashkilotlarining o'rni beqiyosdir. Tijorat banklari nafaqat kredit mablag'larini ajratish, balki loyiha moliyalashtirish, kafillik va konsalting xizmatlari orqali ham tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlamogda. Shu bilan birga, mikromoliya tashkilotlari, ayniqsa ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarga — ayollar, yoshlar va qishloq joylarda yashovchi aholiga mikroreditlar ajratish orqali inklyuziv iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat rahbariyati tomonidan belgilab berilgan strategik vazifalar bank-moliya tizimining tadbirkorlik rivojiga faol hissa qo'shishini ta'minlamogda. Mazkur maqolada aynan ushbu moliyaviy institutlarning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi roli, mavjud muammolar hamda istiqbolli yo'nalishlar chuqur tahlil qilinadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

J. Kensinger va J. Martin o'z tadqiqotlarida biznes loyihalarini kreditlashda tijorat banklarining ishtirokini yoritgan. Ularning fikricha, xalqaro amaliyotda xorijiy tijorat banklari "...faol investorlar bo'lib kelgan va ular uchun loyihalarni kreditlash mavjud an'anaviy amaliyotni kengaytirish hisoblanadi" [3].

K. Ganbat va hamkorlari fikricha, "...keyingi paytlarda jahon amaliyotidan kelib chiqqan holda tijorat banklarining kapitali ekologik loyihalarni kreditlashning muhim manbai hisoblanadi. Biznes loyihalarni kreditlashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — loyihalarni moliyalashtirishda turli manbalar, vositalar va usullardan, jumladan bank kreditlari, aksiyalar emissiyasi, obligatsiyalar, lizing, o'z mablag'lari va hokazolardan keng foydalanish imkoniyatidir. Loyihaviy kreditlash uchun qarz mablag'lari ikki asosiy manba — tijorat banklari va obligatsiyalar investorlari tomonidan taqdim etiladi" [4].

Ta'kidlash lozimki, uzoq yillardan beri tijorat banklari loyihalarni kreditlashning an'anaviy va ishonchli manbalaridan biri sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

E. Escombe biznes loyihalarini kreditlashda mahalliy tijorat banklari ishtirok etishining ahamiyatini ta'kidlab, shunday deydi: "...ma'lum bir davlatdagi loyiha o'z mablag'larini mazkur mamlakatda faoliyat yurituvchi banklardan jalb qilgani ma'qul. Birinchidan, ular mahalliy sharoitni yaxshi tushunadi. Ikkinchidan, moliyalashtirish mamlakat valyutasida taqdim etilishi natijasida valyuta risklarining oldi olinadi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda loyihalar, odatda, mahalliy banklar yoki tegishli mamlakatda filiallari yoki sho'ba korxonalari bo'lgan xorijiy banklar tomonidan moliyalashtiriladi. Bu jarayon loyihalarni moliyalashtirish bozorining eng katta qismini tashkil etadi" [5].

Demak, mahalliy tijorat banklarining biznes loyihalarini moliyalashtirishdagi ishtiroki xorijiy tijorat banklari hamda boshqa moliyaviy institutlar tomonidan muhim mezon sifatida e'tiborga olinadi.

TADQIQOT METADALOGIYASI

Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, qiyosiy, kuzatuv, induktiv, deduktiv, mantiqiy, monitoring va boshqa tahliliy usullardan foydalanildi. Mavzuga oid ma'lumotlar tegishli statistik jadvallar hamda grafiklar asosida tahlil qilindi. O'rganilgan adabiyotlar natijasida mavzu har tomonlama va to'liq yoritildi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2 <https://lex.uz/docs/-5382179>




TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklarining roli tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda banklar faqat kredit beruvchi moliyaviy institut sifatida emas, balki tadbirkorlik subyektlarining strategik hamkoriga aylanmoqda. So'nggi yillarda hukumat tomonidan yaratilgan qulay tartibotlar, xususan garovsiz kreditlar ajratish, imtiyozli foiz stavkalarini joriy etish va davlat kafolatlarini berish tizimi bu jarayonni yanada faollashtirmoqda.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan kredit liniyalari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, lizing xizmatlari, kafolat xatlari va akkreditivlar orqali ham tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy ko'mak ko'rsatilmoqda. Biroq amaliyotda hali ham ayrim muammolar mavjud: kredit olishdagi byurokratik tartiblar, yuqori foiz stavkalari hamda garov ta'minoti bilan bog'liq murakkabliklar tadbirkorlar faoliyatini cheklamoqda.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: tijorat banklari tadbirkorlikni moliyalashtirishda asosiy vositaga aylangan; davlat tomonidan yaratilgan rag'batlantiruvchi mexanizmlar banklar faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilganligini kuchaytirmoqda; amaliyotda mavjud muammolar esa tizimli yondashuvni, ayniqsa kredit siyosatini soddalashtirish va bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali hal etishni talab etadi.

Bundan tashqari, "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, quyidagi chora-tadbirlar ilgari surilgan: mikromoliyalash bozori hajmini kamida 5 barobarga oshirish; mikromoliyaviy xizmatlar bilan 1 milliondan ortiq tadbirkorlik subyektlarini qamrab olish; mikromoliya tashkilotlari resurs bazasida jismoniy shaxslardan jalb qilinadigan mablag'lar miqdorini 2 barobarga oshirish; shuningdek, mikromoliya xizmatlari ko'rsatish orqali rasmiy daromadga ega bo'lmagan 500 mingga yaqin shaxslarni o'zini o'zi band qilish va biznesni rivojlantirishga ko'maklashish (1-rasm) [6].



1-rasm. 2020–2024-yillarda kichik biznesga ajratilgan kreditlar hajmi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda kichik biznesga ajratilgan kreditlar hajmi 5,8 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 10,5 trln so'mga yetgan. Bundan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda kichik biznes subyektlariga ajratilgan bank kreditlari hajmi 2020-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshgan. Bu holat tijorat banklarining tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishdagi ishtiroki sezilarli darajada kengayganini anglatadi. Eng faol yo'nalishlar qatorida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi tarmoqlari alohida ajralib turadi (2-rasm).



2-rasm. 2024-yil 1-may holatiga tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatida 2024-yil 1-may holatiga ko'ra, sanoat tarmog'iga 4,3 trln so'm, xizmat ko'rsatish sohasiga 1,6 trln so'm, savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga 1,7 trln so'm, qishloq xo'jaligiga 1,6 trln so'm hamda qurilish sohasiga 1,3 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilgan. Bundan tashqari, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar umumiy kredit portfeli tarkibida 55,4 foiz ulushni tashkil etadi (3-rasm).



3-rasm. "Aloqabank" ATB chakana biznes sohasi [7]

2023-yilda "AloqaBank" chakana kreditlash yo'nalishida faol va samarali faoliyat olib bordi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi keskin ortib, kredit portfeli hajmi hamda tuzilmasida muhim o'zgarishlar kuzatildi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, bankning chakana kreditlar bo'yicha umumiy qoldig'i 3 081,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2022-yildagi 2 396,5 mlrd so'mga nisbatan 28,6 foiz o'sishni anglatadi. Kredit portfelining bunday o'sishi bank mijozlariga yanada kengroq moliyaviy imkoniyatlar yaratganini ko'rsatadi.

Kredit turlari bo'yicha chakana kreditlarning asosiy qismini quyidagi yo'nalishlar tashkil etadi:

Avtokreditlar — 1 722,7 mlrd so'm (umumiy kredit portfeli tarkibida 55,9 foiz);

Ipoteka kreditlari — 672,6 mlrd so'm (21,8 foiz);

Mikrokreditlar — 474,4 mlrd so'm (15,4 foiz);

Boshqa kreditlar — 129,1 mlrd so'm (4,2 foiz);

Onlayn kreditlar — 47,0 mlrd so'm (1,5 foiz);

Iste'mol kreditlari — 35,6 mlrd so'm (1,2 foiz).

Avtokreditlar va ipoteka kreditlari chakana kreditlash portfelining asosiy qismini tashkil etmoqda, bu esa aholi orasida avtomobil va uy-joy xaridiga bo'lgan talab yuqoriligini ko'rsatadi.

Foiz stavkalari tahliliga ko'ra, chakana kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 2022-yildagi 22,9 foizdan



2023-yilda 22,3 foizgacha pasaygan. Bu bank tomonidan mijozlarga yanada qulay shartlar taklif etilganini bildiradi.

Kreditlar muddatiga ko'ra taqsimotda esa uzoq muddatli kreditlar ustunlik qiladi:

Uzoq muddatli kreditlar — 3 031,2 mlrd so'm (umumiy kredit portfeli tarkibida 98,4 foiz);

Qisqa muddatli kreditlar — 50,2 mlrd so'm (1,6 foiz).

Mazkur ma'lumotlar "AloqaBank" tomonidan chakana segmentda kreditlash faoliyatining izchil kengayib borayotganini va bankning moliyaviy xizmatlar bozorida o'z mavqeini mustahkamlab borayotganini ko'rsatadi (4-rasm).



4-rasm. "Aloqabank" ATB Korporativ biznes sohasi ma'lumotlari [8]

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, "Aloqabank" ATB korporativ kredit portfeli prognozi 7 637,3 mlrd so'mni tashkil etib, bu prognoz ko'rsatkichining 84,6 foiziga tengdir. 2023-yil yakunlariga ko'ra, "Aloqabank" ATB korporativ kredit portfeli 7,6 trln so'mga yetgan bo'lib, shundan 0,5 trln so'm qisqa muddatli, 7,1 trln so'm esa uzoq muddatli kreditlardir. Xorijiy valyutadagi kreditlar kredit portfeli tarkibida 55,6 foiz ulush bilan 4,2 trln so'mni tashkil etadi. 2023-yil yakuniga ko'ra, "Aloqabank" ATB 2 087 nafar mijozga jami 2 945,6 mlrd so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratgan, yil yakuniga qadar so'ndirilgan kreditlar hajmi esa 2 050,9 mlrd so'mni tashkil etgan.

2023-yil davomida modulli kreditlar ajratilishi 1 788 nafar mijoz uchun 641 mlrd so'mni tashkil etgan, shuningdek, bank kafolatlari qoldig'i 44 nafar mijoz bo'yicha 579,6 mlrd so'm miqdorida qayd etilgan. Bank tomonidan ajratilgan modulli kreditlarning tarkibi quyidagicha:

- Start biznes — 15,6 mlrd so'm;
- Aylanma mablag' uchun — 34,1 mlrd so'm;
- ISUZU — 39 mlrd so'm;
- Tezkor avtokredit — 341,9 mlrd so'm;
- Logistika — 31,4 mlrd so'm;
- Qulay avtokredit — 148,9 mlrd so'm;
- Universal kreditlar — 26,8 mlrd so'm.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hozirgi sharoitda O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotida tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Ular tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlashda muhim vositaga aylangan. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat siyosati ushbu moliyaviy institutlarning faoliyatini yanada faollashtirishga xizmat qilmoqda. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar



hajmining o'sishi, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida yaqqol sezilmoqda. "Aloqabank" misolida ko'rib chiqilgan amaliy ko'rsatkichlar bu jarayonning ijobiy natijalarini tasdiqlaydi.

Biroq, mavjud byurokratik to'siqlar, yuqori foiz stavkalari va garov ta'minoti bilan bog'liq muammolar tizim samaradorligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

imtiyozli kreditlar tizimini kengaytirish orqali tadbirkorlikning ijtimoiy ahamiyatli yo'nalishlariga past foizli kreditlar ajratish;

tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni to'liq raqamlashtirish, bu orqali kredit olish, monitoring va hisobot topshirish jarayonlarini soddalashtirish hamda bank tizimiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;

mikromoliya xizmatlarining hududiy qamrovini kengaytirish, ayniqsa qishloq joylarda va ijtimoiy zaif qatlamlar orasida mikrokreditlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida yangi mikromoliya punktlarini ochish hamda mobil xizmatlarni yo'lga qo'yish;

tadbirkorlar o'rtasida bank-moliya tizimi bilan samarali ishlash bo'yicha ma'rifiy dasturlar, treninglar va onlayn platformalarni tashkil etish.

Shuningdek, ajratilgan kredit mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini baholovchi indikatorlar asosida monitoring tizimini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son³ Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5382179>
3. John W. Kensinger, John D. Martin. Project Finance: Raising Money the Old-Fashioned Way. // Journal of Applied Corporate Finance 1(3), April 2005. — p. 69;
4. Khaliun Ganbat, Inessa Popova, Ivan Potravnyy. Impact Investment of Project Financing: Opportunity for Banks to Participate in Supporting Green Economy. // Baltic Journal of Real Estate Economics and Construction Management, № 4, November 2016. — p. 72;
5. Sabirova L., Xanova N. Investitsion konsaltingni rivojlantirish — muvaffaqiyatli investitsion loyihalarini jadallashtirish omili sifatida // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2023. №2 (162);
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.11.2023 yildagi PQ-364-son "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;
7. AT "Aloqabank"ning 2023 — yil ish faoliyati yakunlari bo'yicha hisoboti <https://aloqabank.uz/upload/iblock/20e/01pr367tdncgdok1pch9bnv2zt1bf71/2023.pdf> // "Chakana biznes" 12 — bet;
8. AT "Aloqabank"ning 2023 — yil ish faoliyati yakunlari bo'yicha hisoboti <https://aloqabank.uz/upload/iblock/20e/01pr367tdncgdok1pch9bnv2zt1bf71/2023.pdf> // "Korporativ biznes" 15 — bet.

3 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

7-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
